boshqarish imkonini beradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bugungi o‘quvchilar orasida jismoniy faollik yetarli darajada emasligi, ayrim jismoniy sifatlarning past darajada rivojlanganligi kuzatilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, sog‘lom turmush tarziga to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

▪sport sinovlarini o‘tkazish orqali o‘quvchilarning jismoniy holati, tayyorgarlik darajasi va harakat faolligi haqida to‘liq va aniq ma’lumot olish mumkin;

▪sinovlar natijalariga ko‘ra, individual yondashuvni qo‘llash jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining sifatini oshiradi;

▪yuqori sinf o‘quvchilari orasida sportga qiziqishni oshirish uchun sinovlar jarayonini interaktiv, raqamlashtirilgan va musobaqaviy ruhda tashkil etish maqsadga muvofiq;

▪baholash jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijaviylikni ta’minlaydi va pedagogik nazorat tizimining sifatini oshiradi;

▪sinovlar orqali o‘quvchilarning sog‘lig‘i va jismoniy holatiga oid ma’lumotlar tibbiy-psixologik kuzatuvlar bilan uyg‘unlashtirilsa, jismoniy rivojlanishga kompleks yondashuv shakllanadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini takomillashtirish, ularning salomatligi va harakat madaniyatini rivojlantirishda eng muhim pedagogik vositalardan biridir. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotda qo‘llanilsa, bu nafaqat sog‘lom avlodni shakllantirishga, balki yurt kelajagi uchun har tomonlama yetuk yoshlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 16-iyundagi PQ–5148-qarori. Lex.uz

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 15-yanvar, 23-qarori. Lex.uz

(3). Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma, O‘zDJTI, T., 2005.

(4). Matnazarov O‘.L. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Toshkent, “Lesson Press”, 2022.

(5). Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. T., ITA-PRESS, 2015.

(6). Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. М., “Академия”, 2017.

(7). Armstrong N., Harris J. Physical Fitness and Health Education in Youth. Oxford: Routledge, 2015.

Saidov Ixtiyor Mizrabovich (Urganch Ranch Texnologiya universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM YO‘NALISHI O‘QITUVCHILARIDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati qiyosiy va tanqidiy-tahliliy metodlarga asoslangan tarzda tadqiq qilingan, bo‘lib, unda ijtimoiy-madaniy kompetentlikning yoshlar kamoli va soha mutaxassislarini tarbiyalashdagi o‘rni turli tahlillar, dalillar asosida ochiqlab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-madaniy kompetentlik, chaqiriqqacha harbiy ta’lim, ijtimoiylashuv, muomala layoqati, kommunikativ hamda integrativ ko‘nikmalar.*

Саидов Ихтиёр Мизрабович (доцент университета «Urganch Ranch Texnology», доктор философии (PhD)

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ НАПРАВЛЕНИЯ ДОПРИЗЫВНОЙ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. *В данной статье исследуется важность формирования социальной и культурной компетенции у преподавателей направления допризывной военной подготовки с использованием сравнительных и критико-аналитических методов. Также рассматривается роль социальной и культурной компетенции в воспитании молодежи и подготовке специалистов в данной области на основе различных анализов и доказательств.*

Ключевые слова*: социально-культурная компетенция, допризывная военная подготовка, социализация, коммуникативные и интегративные навыки, навыки общения.*

Saidov Ikhtiyor Mizrabovich (Associate dosetn at Urganch Ranch Technology University, Doctor of Philosophy (PhD)

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN PRE-CONSCRIPTION MILITARY EDUCATION TEACHERS

Annotation. *This article examines the importance of developing social and cultural competence in teachers of the conscription-based military training direction through comparative and critical-analytical methods. The role of social and cultural competence in the development of youth and the training of specialists in this field is revealed based on various analyses and evidence.*

Keywords*: social and cultural competence, conscription-based military training, socialization, communication skills and integrative competencies.*

Kirish. Bugungi kunda harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari nafaqat harbiy bilim va ko'nikmalarga, balki keng qamrovli ijtimoiy va madaniy savodxonlikka ham ega bo'lishi talab etiladi. Chunki zamonaviy harbiy kadrlar nafaqat jangovar vaziyatlarda, balki tinchlik sharoitida ham ijtimoiy muloqot olib borish, madaniy merosni anglash va milliy qadriyatlarni hurmat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Bu esa chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilaridan ijtimoiy-madaniy kompetentlik ko'nikmalarini talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, A.I.Kovaleva va V.A.Lukov (1999) o'z tadqiqotlarida yoshlar sotsiologiyasiga e'tibor qaratib, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlarini o'rgangan. Ularning ta'kidlashicha, harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish uchun yoshlar sotsiologiyasiga oid bilimlarni hisobga olish lozim. N.N.Pomuran (2004) tomonidan etnopsixologik xususiyatlarning iqtisodiy sotsializatsiyaga ta'siri tadqiq etilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim jarayonida milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olish ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. E.Y.G'oziyev (2012) va V.M.Karimova va N.A.G'oyibova (2018) tomonidan oilaviy munosabatlar psixologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda oilaviy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib, uni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi. Tahlil va sintez – mavzuga doir mavjud adabiyotlar va tadqiqot ishlarini o'rganish hamda ularni umumlashtirish orqali asosiy xulosalarni chiqarish. Tajribaviy metodlar – chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligi darajasini aniqlash uchun amaliy tadqiqotlar o'tkazish. Anketalar va so'rovlar harbiy ta'lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy-madaniy bilim darajasini baholash va muammolarni aniqlash uchun qo'llanildi. Taqqoslash va qiyosiy tahlil – ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoit bilan solishtirish. Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning shakllanishi harbiy xizmatchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, jamiyat bilan samarali aloqa o'rnatish va milliy an'analarga hurmat bilan yondashish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunga kelib, respublikamizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O'z navbatida, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [1;1–3-b.]. Hozirgi davrda ta'lim samara-dorligini oshirish, mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Ta'lim – jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omili. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat

ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi fani o‘qituvchilari talabalarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Ta’lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta’lim tizimida chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan uslubiy qo‘llanmalardan unumli foydalanish negizida chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi. Shu munosabat bilan, harbiy ta’lim yo‘nalishi chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarini oliy ta’lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasini ta’minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda.

Ta’lim insonning (ta’lim oluvchining) hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirish bo‘lib, u jarayon yoki oqibat natija sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogika ta’lim to‘g‘risidagi fan inson hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirishdir. Shaxsning strukturaviy iyerarxiyasida ta’lim va shaxs hayotiy tajribasi rivojlanishini quyidagi kontekstda tizimli ifoda etish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi inson hayoti va faoliyatining turli sohalaridagi tez sur’atlarda kechadigan innovatsion o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi, ijtimoiy soha ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda jamiyat va davlatga tez o‘zgaruvchan sotsium (jamiyat)ga ijtimoiy moslashuvchan, faol, ijodkor, xatti-harakatlarning universal usulini egallagan kishilar zarurdir. Ta’lim tizimi hozirgi davr talabiga javoban, ta’limga kompetentli yondashuv g‘oyasini ishlab chiqqan va uni ta’lim maskanlariga joriy etishga harakat qilmoqda. Kompetentlik tuzilmasida ijtimoiy kompetentlikka alohida o‘rin berilgan bo‘lib, u o‘zida turli hayotiy sohalardagi ijtimoiy hamkorlikka bo‘lgan qobiliyat va ijtimoiy moslashuvchanlikni aks ettiradi .Zamonaviy axborot jamiyatini modernizatsiya qilishni globallashuv jarayonisiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, turli fanlarni rivojlantirish va yangi g‘oyalarni joriy etish jarayonini ijtimoiy-madaniy hamkorliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu jarayonlar inson hayotining barcha–kundalik, madaniy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy sohalariga taalluqli.

Inson hayoti davomida doimo turli madaniyat va urf-odatlar vakillari bilan duch keladi, ular do‘stlar, qarindoshlar yoki tanishlar bo‘lishi mumkin. Biroq ular bilan muloqot qilish qiyin bo‘lishi ham mumkin, chunki har bir inson dunyoning o‘z idrokiga ko‘ra anglaydi, madaniy-ma’naviy xususiyatlar turli bo‘ladi va til to‘siqlari o‘rtasidagi farqga egadirlar. Muloqotni muvaffaqiyatli qurish va samarali hamkorlikni amalga oshirish uchun bag‘rikenglik va g‘amxo‘rlik kabi fazilatlar, shuningdek, til muhitiga tezda moslashish qobiliyati talab qilinadi. Bularning barchasini “ijtimoiy-madaniy kompetentlik” umumiy atamasi bilan birlashtirilish mumkin.

Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilari ijtimoiy-madaniy kompetentligini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish, ularda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalangan holda shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Olimlar ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. Shuningdek, yana bir guruh olimlar shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridandir. “Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo‘lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi” .

“Ijtimoiylashuv” atamasini birinchi bo‘lib amerikalik sotsiolog F.H.Geddings insonlarga nisbatan qo‘llagan. U “ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir” degan fikrni bildiradi va uni asoslab beradi [2;14-b]. Fransuz olimi Emil Dyurkgeym va amerikalik sotsiolog olim Telkott Parsons tadqiqotlarida insonga jamiyat ta’sirining sust iste’molchisi sifatida qaralishini ta’kidlagan. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o‘rni, uning hayotiy holatlarga ta’sir etish qobiliyati nazarda tutilgan.

Ijtimoiylashuv masalalarini o‘rganishning sotsiologik va ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlarini ajratish mumkin. Sotsiologik yo‘nalish individning ijtimoiylashuvini ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishish uchun ma’lum bir ijtimoiy xususiyatlarni o‘zlashtirish bilan aloqadorlikda aks ettiradi, ijtimoiy-psixologik yo‘nalish esa ijtimoiylashuvda ontogenez davrida ijtimoiy me’yor, madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonini ifoda etadi.

Klassik yondashuvlarda, ijtimoiylashuv individni jamiyat a'zosi sifatida his qilishi uchun zarur bo'ladigan barcha odob-axloq va qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga qamrab olishi orqali shaxs hayotida alohida ahamiyat kasb etishi, ta'kidlanadi. Bunda ijtimoiylashuv ikki tomonlama jarayon sifatida yuzaga chiqishi bayon etiladi. Ya'ni, birinchisida, individdan ijtimoiy muhitga, ijtimoiy bog'lanishlarga kirishish yo'lida sotsiumdagi mavjud ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish talab etilsa, ikkinchisida esa bu tizim ichida individ o'z faoliyati davomida sodir bo'lishi kuzatiladigan jarayonlarning faol ishtirokchisi va subyekti sifatida maydonga chiqishi zaruriy shart hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologlar bu tushunchaning mazmunini yoritishar ekan, ijtimoiylashuv – jamiyat va boshqa kishilar bilan bo'ladigan qoniqarli aloqalar taraqqiyotida kutiladigan xulq-atvor va o'zlashtiriladigan rollarning namoyon bo'lish jarayoni, deb tushunishadi.

A.I.Kovalevaning yozishicha, "ijtimoiylashuv – o'z ichiga barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan bo'lib, u individning belgilangan normalar, qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat a'zosi sifatida ulardan keng qamrovda foydalanishida namoyon bo'ladi" [3;351-b.]. Bunday sharoitlarda ijtimoiylashuv ikki yoqlama jarayon sifatida yuzaga keladi, ya'n,i birinchidan, individ ijtimoiy tajribalarni tizimga aloqador holda muhitga kirib borishi orqali o'zlashtirsa, ikkinchidan, bu tizimni yaratish, shakllantirish va rivojlantirish bevosita individning hayotiy faoliyati davomida amalga oshiriladi. Bu tizimda individ tomonidan faol tarzda o'zlashtirilgan normalar va ijtimoiy rollar muhim ahamiyat kasb etib, natijada, ijtimoiylashuv – ijtimoiy tajribalarni boshqa individlarga yetkazishdagi uzluksiz jarayon sifatida yuzaga chiqadi

N.N.Pomuranning bu mavzu yuzasidan u tushunchani e'tirof etishicha, "ijtimoiylashuv bu individ tomonidan butun umr davomida o'z jamiyatiga taalluqli bo'lgan ijtimoiy rollar, odob-axloq normalari, milliy va ma'naviy qadriyatlarning o'zlashtirilishi jarayonidir" [4;176-b.]. Bunda ijtimoiylashuv jarayoni yosh davrlari bo'yicha chegaralanmaydi, balki u individning butun hayoti mobaynida ijtimoiy ko'nikmalar va tajribalarni o'zlashtirishida namoyon bo'ladi .

E.Y.G'oziyevning izlanishlarida, "shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ijtimoiy kamolotga erishuvi, alohida faollik namoyish qiluvchi, o'ziga xos faoliyat ko'rsatuvchi individdan muayyan aqliy qobiliyatini rivojlantirishga, ijtimoiy turmushdagi rollarni, mas'uliyatli yumushlarni bajarishga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarligidir", deb ta'riflanadi [5;316-b.].

Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada keng tarqalgan ta'riflarda esa ijtimoiylashuv – bu individning hayoti davomidagi o'z jamiyatiga taalluqli bo'lgan qadriyatlar, ijtimoiy rollar, xulq-atvorlarni o'zlashtirishidir, deya ta'kidlanadi. Shuningdek, V.M.Karimovaning ta'kidlashicha, "...ijtimoiylashuv tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sotsiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, tashkilotda qabul qilingan norma va qoidalarni o'zlashtirishga moyilligi hamda ularni o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir" [6;111-b.]. Eng asosiysi, bu tushunchaning tub zamirida insonning tug'ilib, o'zini bevosita o'rab turgan tashqi muhit ta'sirida ulg'ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi .

Amerikalik sotsiolog N.Smelzer "ijtimoiylashuvni ijtimoiy rolga muvofiq keluvchi ko'nikma va ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish jarayoni" tarzida aniqlashtirgan. G.Tard jamiyatni yaxlitlikda avloddan avlodga o'tib borish hamda qadriyat va ustanovkalarni o'zlashtirish orqali individual ongning mahsuli sifatida talqin etadi. Uning fikricha, qadriyat va ustanovkalarni o'zlashtirish barcha ijtimoiy hayotning izohli tamoyilini aks ettiruvchi "taqlid" tushunchasida o'z ifodasini topadi. Amerikalik sotsiolog F.H.Giddings ijtimoiy organizmning tashkil topishida istesno tariqasida psixologik asos yotadi. Uning fikricha, birgalikdagi o'zaro faoliyat umumiy qadriyatlar tarkib toptiriladigan ishonch va taqlid mexanizmi orqali sodir bo'ladi. Jamiyatning ta'siri ostida individda jamoaviy ustanovkalar, identiv anglanganlik tarkib topadi. Amerikalik olim T.Parsons jamiyatni asosiy funksiyasi biologik ko'payish va yangi avlodni ijtimoiylashtirish yo'li bilan yangilanish bo'yicha ma'lum bir qoidalar tizimi asosida ratsional tashkil topish va mavjud bo'lish sifatida tasavvur qilgan. Shuning uchun jamiyat shaxsni ijtimoiy ahamiyatli va nazorat qilinuvchi xulq-atvor namunalarida ishtirok etishi uchun adekvat motivatsiyaning hayotiy sikli jarayonida rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim .

Oliy ta'lim muassasasi chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim muammo ekanligini asoslash haqida gap borar ekan, mazkur holatda "ijtimoiy moslashtirish" tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat tadqiqotlarda moslashuvning o'ziga xos turi sifatida "ijtimoiy-psixologik moslashuv"ga alohida e'tibor qaratilib, faqat uning psixologik jihatlarini yoritib berish bilan cheklaniladi. Bizningcha, ijtimoiylashuv inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayoni ekan, bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olga-

nida, o‘z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o‘z o‘rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Pedagogika fanlari doktori, professor N.M.Egamberdiyeva ta’kidlab o‘tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta’lim-tarbiya ta’sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi [7;73-b.].

Umumiy qilib aytganda, moslashuv, shu jumladan, ijtimoiy moslashuvga aniq maqsadga qaratilgan pedagogik ta’sir ko‘rsatish natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir .

Ta’lim sohasidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning konseptual qarashlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy pedagogikada “boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatda, oilani, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va farzandlarni tarbiyalashda “ongli” va o‘zlarining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirish qobiliyati”, deb hisoblaydi” .

Shu jihatdan N.Y.Rajinovning ijtimoiy kompetensiyaning asosiy ko‘rsatgichi, assertivlik, ya’ni shaxsning o‘ziga ishonchi (ishonchsizligi) ekanligi to‘g‘risidagi fikri diqqatga sazovordir. Psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi xatti-harakatlarning xususiyatlari, shaxs faoliyatining dominant shakli, hayot faoliyati to‘g‘risidagi hozirgi bilim darajasi bilan bog‘lab talqin qilinadi. Shu bilan birga, kompetentlikning tabiatini psixologik tushunish, asosan, belgilangan shaxsiy sifatiga, fazilatiga qaratilgan.

Ijtimoiy kompetensiya shaxs ijtimoiylashuvning ajralmas qismi bo‘lib, bu ijtimoiy rollarning o‘zgarishiga dosh bera oladigan shaxsning boshqalar bilan hamkorlik qilish, aloqalar o‘rnatish, oson moslashuv, o‘zgarishga tayyorlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z harakatlarining oqibatlari uchun ijtimoiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

Muomala layoqati har bir insonga hayot faoliyatining har bir jabhasida eng kerakli bo‘lgan unsur hisoblanadi. Hozirgi davrda har tomonlama bilimli – og‘zaki va yozma nutqi rivojlangan insonlarga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Afsuski, hozirgi o‘qituvchilarning muomala kompetentligida ham jiddiy muammolar mavjud bo‘lib, bu narsa ularning jamiyatga qo‘shilishida to‘siqlarni yuzaga keltirishi mumkin, buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarida mutolaa madaniyati darajasining tushib ketganligi;

– shaxsiy lug‘aviy so‘z boyligining yetarli emasligi;

– muomalaga kirish uchun zarur shaxsiy-individual xususiyatlarning yaxshi shakllanmaganligi.

Yuqoridagi sifatlarning yetishmasligi chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarida bilimlari yetishmasligi fikrlarni izchil bayon etolmaslik oqibatida ko‘pchilikka qo‘shilmaslik va ish faoliyatida bir qobiqqa o‘ralib qolish kabi xislatlarni rivojlantirmoqda. Natijada ularning jamiyatga qo‘shilishlarida bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, o‘z o‘rnida, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarini kasbga yo‘naltirishdagi muammolarga sabab bo‘ladi. Yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta’lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Kelajakda kim bo‘lishini to‘g‘ri tanlash har bir yoshning butun hayoti mobaynida o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashash tuyg‘ularini shakllantiradi. Inson olib borayotgan faoliyatidan, eng avvalo, o‘zi qoniqish hosil qilsa, hayoti davomida o‘z ishiga ijodiy yondashsa, uning mehnat unumdorligi ortishi bilan birga hayotga bo‘lgan qiziqishi ham ortib boradi .

Chaqqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilari uchun ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish muhim jarayon bo‘lib, u nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki kelajakdagi harbiy faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish harbiy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchilarning vatanparvarlik, mas’uliyat, muloqot va madaniy saviya darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning tarkibiy qismlari – kognitiv, mas’uliyatlilik va motivatsion komponentlar – harbiy o‘qituvchilar shaxsiy va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda bu jarayonga ta’sir etuvchi omillar, samarali pedagogik sharoitlar va metodlar tahlil qilindi.

Maqolada ilgari surilgan tavsiyalar asosida aytish mumkinki, harbiy ta’lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlar va tarbiyaviy tadbirlar keng qo‘llanishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning jismoniy va ma’naviy yetukligini ta’minlashga hamda jamiyatda faol va madaniyatli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, harbiy ta’lim jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi, balki ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirib, harbiy xizmatga yanada mas’uliyat bilan yondashishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni. https://lex.uz/acts/5085999.

(2). Khurramovich T.U. In the Process of Social RelationsCharacteristics, Methods and Development Mechanisms of Rational andIrrational Thinking. Article. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. www. genius-journals.org

(3). Ковалёва А.И., Луков В.А. Социология молодёжи. Теоретические вопросы. Москва, “Социум”, 1999, с. 351.

(4). Помуран Н.Н. Этнопсихологические особенности экономической социализации старшеклассников в современных условиях. Дис.канд.псих.наук, 19.00.05, Иркутск, 2004, с. 176.

(5). G‘oziyev E.Y. Sotsial psixologiya. Toshkent, “Noshir”, 2012, 316-bet.

(6). Karimova V.M., G‘oyibova N.A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, TDPU, 2018, 111-bet.

(7). Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik, Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009, 73-bet.

Xodjaniyazov Sardor Umarovich (pedagogika fanlari doktori (DSc), Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi professori; e-mail: sardor@urdu.uz),
Kenjayeva Komila Ulug‘bek qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi fakulteti, 1-bosqich magistratura talabasi; e-mail: kenjayevakamila0702@gmail.com)

MONTESSORI TIZIMINING BOLALARNING HISSIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Maqolada Montessori tizimining bolalarning hissiy madaniyatini rivojlantirishdagi pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu metodika bolalarga mos muhit yaratib, hissiy o‘zini ifoda etish, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish va ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqotda metodikaning hissiy rivojlanishga ta’siri va uning ta’lim tizimidagi ahamiyati ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Montessori tizimi, hissiy madaniyat, pedagogik samaradorlik, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, muloqot qobiliyatlari, ijodiy fikrlash, mas’uliyat hissi, ta’lim tizimi.*

Ходжаниязов Сардор Умарович (доктор педагогических наук (DSC), профессор кафедры педагогики и психологии Ургенчского государственного университета; e-mail: sardor@urdu.uz),
Кенжаева Комила Улугбек кизи (магистрант 1-курса факультета теории и истории педагогики Ургенчского государственного педагогического института; e-mail: kenjayevakamila0702@gmail.com)

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ МОНТЕССОРИ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ СЕНСОРНОЙ КУЛЬТУРЫ ДЕТЕЙ

Аннотация. *В статье анализируется педагогическая эффективность системы Монтессори в развитии эмоциональной культуры детей. Эта методология способствует эмоциональному самовыражению, развитию социально-эмоциональных навыков и творческому мышлению, создавая среду, благоприятную для детей. В исследовании показано влияние методики на эмоциональное развитие и ее значение в системе образования.*

Ключевые слова: *система Монтессори, эмоциональная культура, педагогическая эффективность, социально-эмоциональное развитие, коммуникативные навыки, творческое мышление, чувство ответственности, система воспитания.*

Xodjaniyazov Sardor Umarovich (Doctor of Pedagogical Sciences (DSC), Professor of the Department of Pedagogy and Psychology at Urgench State University; e-mail: sardor@urdu.uz),
Kenjayeva Komila Ulug’bek qizi (1st-year Master's student at the Faculty of Theory and History of Pedagogy of the Urgench State Pedagogical Institute; e-mail: kenjayevakamila0702@gmail.com)

PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF THE MONTESSORI SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SENSORY CULTURE

Annotation. *The article analyzes the pedagogical effectiveness of the Montessori system in the development of children's emotional culture. This methodology promotes emotional self-expression, development of socio-emotional skills and creative thinking, creating an environment suitable for children. The study shows the influence of methodology on emotional development and its importance in the educational system.*

Keywords: *Montessori system, emotional culture, pedagogical efficiency, socio-emotional development, communication skills, creative thinking, sense of responsibility, educational system.*